



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 1-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



JADID VA TANZIMOT ADABIYOTIDA ERK MASALASI

No'monova Ro'zaxon No'monjon qizi

NamDTU tayanch doktoranti

Email: nomonovaroazon2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlari o'zbek va turk she'riyatidagi o'ziga xos xususiyatlar erk mavzusi misolida ko'rib chiqilgan. Davr shoirlarining erkinlik va hurriyatga intilishlarini o'zida aks ettirgan umumiy mavzular, motivlar va adabiy vositalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, turk matbuoti ta'siri, XX asr boshlaridagi she'riyat qiyofasi, erk g'oyasining ifodalanish usullari va ko'rinishlari

XX asr boshlaridagi o'zbek va turk she'riyati Sharq adabiyotining umumiy ruhida yangi konseptual model — erkning beqiyos ko'rinishini shakllantirdi. Bu arxetip o'z navbatida keyingi davr she'riy tafakkuriga — milliy va global ozodlik harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu davr davomida ikki millat adabiyotidan ham yetuk fikrli, yurt ozodligi yo'lida o'z jonini, hayotini, ijodini tikkan zabardast ijodkorlar yetishib chiqdi. Ulardan Cho'lpon bilan Namiq Kamol ijodlari g'oyaviy jihatdan bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. Ular ijodidagi eng muhim jihat — bu ularning adabiyotga bo'lgan munosabatidir. Shoir o'zining "Yashayish", "Og'riganda", "Yupanmoq istagi", "Tun", "Xazon" va "Somon parcha" kabi she'rlarida o'lkada bo'lib turgan xunrezliklar, turli ko'rinishdagi tubanliklardan bezgan, charchagan, taslim bo'lgan qahramon timsolida gavdalanadi. Ayniqsa, "Somon parcha" sarlavhali she'ri "Farg'ona" gazetasining 1923 yil 29 oktyabr sonida bosiladi. Unda shunday satrlar bor: "Muhit girdobida bir somon parcha, bir poxol cho'pidek oqib boramen"; "Muhit kuchlik ekan, egdim bo'ynimni"; "Men endi xuddi bir somon parchasi...". Bunday iztirobli tuyg'ular, shubhasiz, Cho'lponda dabdurstidan paydo bo'lgan emas. Bu jonso'z iztiroblar shoir o'z hayotini bag'ishlagan Vatan ozodligi, erkinligining sho'rolar tobora kuch ola borgan sari sarobdek uzoqlashayotganidan yuzaga kelgan. Ayniqsa, 1918 yil fevralida Turkiston muxtoriyatining bolsheviklar tomonidan mahv etilishi, 1920 yilning sentyabr oyida Bokuda o'tgan Sharq xalqlari qurultoyining umid qilingan natijani bermagani, 1920 yili tashkil topgan Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining "mustaqilligi" qog'ozdagina ekanligi, "bosmachilik" deb atalgan harakatdan so'nggi ilinj tarzida nimalardir umid qilinib yurgan vaqtda, uni tugatish yo'lida sho'rolar tashkil etgan "Darxon" degan gazetada Cho'lponning o'zi ham ishlashga majbur bo'lishi ("Buxoro axbori" muharrirligidan gazetani millatchilik yo'liga solib yubordi, degan ayb bilan bo'shatilgani uchun do'stlari sho'rolar oldida o'zingni sal oqlab ol, degan maslahat bilan uni shu gazetada ishlashga qistashgan) shoir qalbida ruhiy buhronlarni kuchaytirib, unda badbinlik (pessimistik) tuyg'ularni kuchaytirgan. Mana shunday ruhiy holat ostida u o'zini muhit selida oqib borayotgan somon parchasiga o'xshatgan satrlarni bitadi.



“Xazon” she’rida ham avvalboshdan taslimlik, mag’lublik kayfiyatida turgan shoir she’rning 3-bandiga kelib, uyg’ongandek, qo’zg’algandek ko’rinadi:

**Ey sovuq ellardan muz kiyib kelganlar,
U qo’pol tovshingiz qirlarda yo’q bo’lsin!
Ey mening bog’imdan mevamni terganlar,
U qora boshingiz yerlarga ko’milsin!**

Bundan tashqari Cho’lponning “Xalq”, “Go’zal”, “Ko’ngil”, “Kuz”, “Binafsha”, “Buzilgan o’lkaga”, “Men va boshqalar”, “Aldanish”, “Erkinlik istagi” singari o’nlab she’rlarida erk tuyg’usi, istiqloq umidi yorqin ifodalangan. Bular orasida ayniqsa, “Aldanish” va “Erk istagi” she’rlari g’oyat ibratlidir. 1922-yilda yozilgan har ikkala she’rning sarlavhasidan ham ayon bo’lib turibdiki, uning barcha orzulari sarob bo’lib chiqdi:

**Men uni hayoliy, totli bir sevish,
ilohiy bir muhabbat, ishq bilan sevdim.
Besh yil, shuning uchun besh yil anglayish,
Yonish, kuyishlarim... oh, endi bildim.**

Shoir ona yurtining begona qo’l tegmagan momiqdek bo’yniga istibdod zanjiri yanada qattiqroq tortilayotganligini anglab yetdi: **Erkin ko’nglim chiday olmas bu siqiq, Bu bog’langan, bu “egalik” turmushda**, deya hayqiradi va bu “tor qafasdan o’zini qutqargali” urinayotgan, intilayotgan xalqini mustamlaka kishanlarini parchalab tashlash uchun birlashmoqqa chaqiradi. Bundan buyog’iga erkinlik, istiqloq istagidan o’lsa ham qaytmaydi:

**Tomirimda qo’zg’olishning vahshiy qoni gupurdi,
Eski fikr, an’analar endi butkul uzildi.**

Yo ketarman yoki sening saltanating buzilur!

Kuzatuvlar shuni ko’rsatadiki, yigirmanchi yillarda yaratgan she’rlarida Cho’lpon mustamlakachilik timsoli sifatida “kishan” obraziga ko’p murojaat qiladi. Uning zang bosgan halqalaridan azob chekayotgan millat ahvoli uni qayg’uga soladi. Satrlar mazmunan bir-birini to’ldirib boradi, boyitadi, istiqloq dardi biridan ikkinchisiga kuchayib, o’sib boradi, ozodlik to’lqini po’rtanaga aylana boradi. Ko’rinadiki, she’rda qo’llanilgan har bitta badiiy unsur katta ijtimoiy ma’no tashiydi. Undagi har bir band tugal bir manzara ifodalashga xizmat qiladi:

Kishan, gavdamdagi dog’ing hanuz ham bitgani yo’qdir!

Faqat butkul qutulmoqqa umidim endi ortiqdir!..

Ko’rganimizdek, Cho’lpon she’rlarida simvolizm yuqori darajada namoyon bo’lsa, Namiq Kamol ijodida **ochiq publitsistik ohang**, jo’shqin da’vat va bevosita murojaatlarga keng o’rin beriladi. Uning she’rlarida shoir xalqni kurashga chorlovchi ma’rifatchi va siyosiy arbob sifatida namoyon bo’ladi:

**Kalkin ey ehl-i vatan biz de shadan olalim
Din ü millet ugruna haydi kurban olalim**

**Şan günü bu gündür bu milletin aslanları****Çekelim kılıçları dökelim al kanları**

(Tarjiması: Qo'zg'oling, ey ahli vatan, biz ham shodon bo'laylik. Din-u millat yo'lida biz ham qurbon bo'laylik. Shodiyona kun aslida bugun, bu esa ushbu millatning arslonlari. Qilichlarni qinlaridan chiqaraylik, dushman ning qizil qonini to'kaylik)

Shoir o'zining "Hurriyat qasidasi" deb nomlangan she'rida esa umumiylik ruhidan boradi, go'yo millatdoshlarini ayaydi, shundog' ham ezilgan, toptalgan ko'ngillarini ehtiyot qiladi:

Biz ol alihimem erbab-ı cidd ü içtihadiz kim**Cihangirane bir devlet cikardık bir aşirettten.**

(Tarjiması: Biz jiddiy, ulug' hamiyat egasi bo'lgan mehnatkash insonlarmiz, kuch-qudrat sohiblarimiz, Bir kichik qabiladan jahonni larzaga solgan ulug' davlatni biz yaratganmiz.

Cho'lpon she'riyatida Namiq Kamol ijodidan farqli tarda liriklik, musiqiylik va nozik ruhiy kechinmalar ustuvorlik qiladi. Mustamlakachilik va qaramlikka qarshi keskin norozilik, inson va vatan ozodligiga, mustaqillikka, milliy istiqbolga da'vat shoir ijodining bosh g'oyasi, uning "Buzilgan o'lkaga", "Kishan", "Ko'ngil", "Binafsha", "Aldanish", "Xalq" kabi she'rlarida jadidlar davri milliy uyg'onish ruhi, mustamlakachilik mafkurasiga qarshi ochiq noroziligi abadiy muhrlanib qolgan. Cho'lponning "Kishan kiyma, Bo'yun egma, Ki sen ham hur tug'ulgonsen!" kabi satrlari millat shoirining barhayot da'vati bo'lib qolgan. Cho'lpon va boshqa jadid adabiyoti, shuningdek Tanzimot adabiyoti vakillarining ma'naviy merosi ta'sirida milliy ziyolilarning ijodida Vatan mustaqilligi orzusi kurtaklay boshlaganini alohida e'tirof etish joiz. Til masalasiga kelsak, Cho'lpon o'zbek xalqona ifodalarni nafis badiiy shaklda qo'llasa, Namiq Kamol usmonli turk adabiy tili an'anasiga tayanadi, dramatik keskinlik va ritorik kuch ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov N. XX asr manzaralari. — Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2008.
2. Ibragimov S.E. Jadidchilik harakati // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. — 2021.
3. Abdurashidov Z. "Shimol shamoli" yoki Buxoroning uyg'onishi: Istanbuldan bir nazar // O'zbekiston: til va madaniyat. — 2022. — №3.
4. Nomanova Ruzakhon Nomonjon qizi, Tadjibayeva Mukaddas Abdurakhimovna. The Expression of the Idea of Enlightenment in the Poetry of Hamza Hakimzoda // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. — 2020. — Vol. 10, Issue 11. — B. 1272–1276.
4. Cho'lpon. Go'zal Turkiston. — Toshkent: "Turon zamin" nashriyoti, 2024. — 58 b.
5. Turkiy adabiyot durdonalari. 40-jild. — Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. T-2022.B.55